

BOSHQARUV FAOLIYATIDA RAHBARNING O'RNI VA FAOLIYATI

Qayumov Jafarbek Rustam o'g'li

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti talabasi

Qayumovjafar6@gmail.com

Annotatsiya Boshqaruv tushunchasi tor ma'nodagi biror-bir tashkilot maqsadiga erishish yo'lidagi asosiy strategiyalar emas. U juda katta qamrovga ega. Bunda esa rahbarning o'rni beqiyos usiz boshqaruvni tasavvur qilish qiyin. Boshqaruvning hozirda bizning hayotimizning ajralmas bir qismiga aylangan. Yanada rivojlantirish esa juda muhim.

Kalit so'zlar: boshqaruv mohiyati, boshqaruv turlari, boshqaruv jarayoni, rahbar mas'uliyati, rahbar xodimlarining mamlakat rivojidagi o'rni.

Kirish: Ma'lumki har qanday faoliyat turi boshqaruv asosiga quriladi, chunki shu faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga erishish, bajariladigan vazifalarni taqsimlash, ijrosini nazorat qilish, shuningdek, samaradorlikka erishish uchun shu faoliyatda ishtirok etuvchilar manfaatlarini himoya qilish, rag'batlantirish chora-tadbirlari boshqaruv jarayonida tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi. Bunda boshqaruvga iqtisodiyotda mavjud tizim ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mustaqilligimizni qo'lga kiritmasimizdan oldin iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka hamda markaziy rejalashtirishga asoslangan tizim hukmron edi. Faqatgina mulkchilikning davlat mulki va shirkat mulki shakliga ega bo'magan, markazdan turib belgilangan rejalar asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, qattiq nazorat qilish, qolaversa, jamiyatda mulkdorlar sinfining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi iqtisodiy tizim o'zini oqlamaganligi tarixdan ma'lum. Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul

qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning borishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv nafaqat korxonada doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o'z tanlagan yo'li maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli, barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi. Har bir inson vaqt, mehnat sarflayotgan ijtimoiy zaruriyati, vazifasi yohud topshiriqlari yig'indisi yanada samarali, foydali va manfaatli bo'lishi uchun harakat qiladi. O'z o'rnida bu harakatlar esa individual (yakka) va kollegial (jamoaviy) holatlarda amalga oshiriladi. Bunda harakatlar ko'zlangan maqsad, maqsadga erishish yo'lidagi amallar hamda amallarga prinsipial yondashuv bilan karakterlanadi. Ma'lumki, yakka tarzda ishlash nisbatan qulayroq, jamoaviy ishlashda esa har qanday qulaylik, yutuqlar va inqiroz ham jamoaning ijtimoiy muhiti, hamda jamoaga boshchilik qiladigan shaxsning boshqaruvchanlik qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Tom ma'noda to'g'ri yo'lga qo'yilgan boshqaruv ko'p jihatdan e'tiborli hisoblanadi.

ASOSIY QISIM: Boshqaruv jarayoni - tashkilot resurslarini u tomonidan o'zining maqsadlariga erishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo'yicha uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlarning majmuasi. Ta'kidlangan jarayonni ya'ni uzluksiz o'zaro bog'liq harakatlar majmuini maqsadlarga erishish uchun har tomonlama to'g'ri yo'naltirish eng avvalo rahbar zimmasiga yuklanadi. Shuning uchun rahbar shaxs doimo rivojlanish uchun harakatda bo'lishi va faoliyatining ijobiy izchilligini ta'minlay olishi zarur. Boshqaruvning qaysi bo'g'inida bo'lishidan qat'iy nazar, rahbar o'z faoliyati natijalari va o'zi rahbarlik qilayotgan bo'linma faoliyatiga javobgardir. "Rahbar mas'uliyati" tushunchasi mansabdor shaxslarning boshqaruv faoliyatiga baho berishda, ularning o'ziga topshirilgan ishga munosabatini tavsiflashda keng qo'llaniladigandi. Boshqaruv mansabdor shaxs anglab yetgan va qabul qilgan barcha vazifalarni sifatli bajarish zaruriyatini ifodalaydi. Darhaqiqat, har bir rahbarda birinchi navbatda shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat tushunchalari shakllangan bo'lishi kerak. Chunki unga berilgan mansab yoki unvonning o'zi avvalo ishonch va ikki barobar mas'uliyatdir. Bildirilgan ishonchni oqlash uchun xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish tashkilot

yutug'ining yarmiga tengdir. Shunday ekan boshqaruv jarayoni va rahbarlar faoliyatida "Rahbar mas'uliyati" eng muhim tushunchalardan biridir. Rahbar mas'uliyati - rahbar madaniyatining asosiy belgilaridan biri bo'lib, uning ma'lum sohaga javobgarligini aks ettiradi hamda alohida shaxs, xodim mas'uliyatidan farq qilib, ko'lami kengligi, salmog'i bilan ajralib turadi. Shu bois, rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zgaralar oldidagi, jamoa, jamiyat, Vatan, millat oldidagi burchini teran anglashdir. Umuman, mas'uliyat rahbarning zimmasidagi vazifasiga nisbatan javobgarlik tuyg'usidir. Mas'uliyatli rahbar, eng avvalo, o'ziga, so'ngra boshqalarga nisbatan talabchan bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi barcha salbiy hodisalar esa ana shu mas'uliyat hissining yo'qligidan kelib chiqadi. Albatta, o'zi sidqidildan ishlayotgan rahbar ish faoliyati va natijani sifat jihatdan yaxshilash uchun xodimlarini ham ortidan ergashtira oladi. Kezi kelganda xodimlaridan korxonaga yoki tashkilot maqsadi uchun samarali va foydali mehnat faoliyatini ham talab qila oladi. Bunday rahbarlarning bunaqa holatda talabi qanoatlantirilishi, xodimlarining o'zidan vakolat bo'yicha baland personal buyrug'ini bajarish emas balki, rahbar bo'lishiga qaramay jamoa va tashkilot uchun hamda xodimlar bilan teng harakat qilgan, o'zlari uchun namuna bo'ladigan, motivatsiya oladigan shaxs bilan birgaligidan vujudga keladi. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini yanada erkinlashtirish rahbar kadrlarning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasidagi ahloqiy jihatlari masalalarining mavqeini oshiradi. Davlatimiz rahbari kadrlar tarbiyasiga, ma'naviyatiga, salohiyatiga muhim ahamiyat berayotganligi, rahbar kadrlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga da'vat etayotganligi boisida ham ana shu ehtiyoj yotadi. Rahbar kadrlar jamiyatni harakatga keltiradi, xalq ichida mavjud bo'lgan ijodiy kuchlarni uyg'otadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni jonlantiradi. Albatta, buning uchun jamoatchilik ongida rahbar namunaga aylanishi, odamlarni o'z so'ziga ishontira olishi, xalqni ortidan ergashtira olishi zarur. Mamlakatning barcha joylarida va sohalarida davlat siyosatini yurguzib, inson manfaatlari yo'lida rahbarlik ishlarini amalga oshira oladigan rahbar kadrlarning faoliyatini yanada

takomillashtirish shu ma'noda doimo davlatimiz rahbarining e'tiborida turibdi. "Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda "Temur tuzuklari" bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag'zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag'oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

XULOSA: Shuni ochiq aytishimiz mumkinki, biz qachon yurtimizda holatni rivojlanishni yanada ko'tarmoqchi bo'lsak birinchi navbatda ishonchli o'z ishining haqiqiy mutaxasislari bo'lgan kishilarni boshqaruvda qo'yishimiz va ularning yanada rivojlanishi uchun sharoit yaratishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1."BOSHQARUV MA'NAVIYATI VA RAHBAR MA'NAVIY QIYOFAS" Sport ta'lim muassasalari rahbarlari va o'rinbosarlari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent – 2021

2." Boshqaruv jarayonida rahbarlik faoliyatini rivojlantirish" Sh. Abdusamadov.

3. "Boshqaruv faoliyati va boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari" Sh. Abdurahmonov.

4."Boshqaruv nazariyasi" darslik. X.A.Muhiddinov, A.A.Sobirov . Cho'lpon nomidagi nashriyoti – matbuot ijodiyot uyi. Toshkent – 2012

5."Boshqaruv faoliyatining bugungi kundagi ahamiyati va menejment tamoyillarining mazmuni" I.M.To'xtayeva